



THE CONCEPT OF MORALITY AND SPIRITUAL DEVELOPMENT IN ISLAMIC VIEWS

D.E. Normatova

Associate Professor, Department of "Philosophy and National Idea"
Fergana State University
Fergana, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Islam, morality, spirituality, development, Qur'an, Hadith, human perfection, spiritual values, spiritual purification, Islamic education.

Received: 10.11.25

Accepted: 11.11.25

Published: 12.11.25

Abstract: This article analyzes the issues of morality and spiritual development from the perspective of the Islamic worldview. It explores the formation of moral qualities based on the Qur'an and Hadith, the interrelation of spiritual factors in the development of the individual and society, as well as the significance of Islamic ethics in the modern era. The article also examines the role of Islamic values in preventing spiritual crises.

ISLOMIY QARASHLARDA AXLOQ VA MA'NAVIY TARAQQIYOT KONSEPSIYASI

D.E. Normatova

"Falsafa va milli g'oya" kafedrasi dotsenti
Farg'ona davlat universiteti,
Farg'ona, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Islom, axloq, ma'naviyat, taraqqiyot, Qur'on, hadis, inson kamoloti, ma'naviy qadriyatlar, ruhiy poklanish, islomiy tarbiya.

Annotatsiya: Ushbu maqolada islomiy dunyoqarash nuqtayi nazaridan axloq va ma'naviy taraqqiyot masalalari tahlil qilingan. Maqolada Qur'on va hadislar asosida axloqiy fazilatlarining shakllanishi, inson va jamiyat taraqqiyotidagi ma'naviy omillarning o'zaro bog'liqligi, shuningdek, zamonaviy davrda islomiy axloqning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, ma'naviy inqirozning oldini olishda islomiy qadriyatlarining o'zni ham tahlil qilingan.

ИСЛАМСКАЯ КОНЦЕПЦИЯ ПРАВСТВЕННОСТИ И ДУХОВНОГО РАЗВИТИЯ

Д.Э. Норматова

Доцент кафедры «Философия и национальная идея»,
Ферганский государственный университет
Фергана, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	ислам, нравственность, духовность, развитие, Коран, хадис, совершенство человека, духовные ценности, духовное очищение, исламское воспитание.	Аннотация: В данной статье с позиции исламского мировоззрения анализируются вопросы нравственности и духовного развития. В работе раскрыты процесс формирования нравственных качеств на основе Корана и хадисов, взаимосвязь духовных факторов в развитии человека и общества, а также значение исламской этики в современную эпоху. Кроме того, рассмотрена роль исламских ценностей в предупреждении духовного кризиса.
------------------------	---	--

Kirish. Insoniyat tarixida axloq va ma'naviyat masalasi har doim markaziy o'rinda bo'lib kelgan. Har bir jamiyatning taraqqiyoti, madaniy yuksalishi va ijtimoiy barqarorligi, avvalo, uning a'zolarining axloqiy yetukligi va ma'naviy dunyosiga bog'liqdir. Shu ma'noda, islom dini inson hayotining barcha jabhalarini qamrab olgan, uning ruhiy kamolotiga yo'naltirilgan mukammal ta'limot sifatida axloqiy qadriyatlarga alohida e'tibor beradi.

Bugungi globallashuv jarayonida ma'naviy qadriyatlar qadrsizlanib borayotgan bir paytda, islomiy axloq konsepsiyasini o'rganish va uni jamiyat hayotida mustahkamlash dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki islomiy qarashlarda axloq va ma'naviyat insonning faqat shaxsiy emas, balki ijtimoiy va madaniy rivojlanishining ham poydevori hisoblanadi.

Islomning ahkomlari, shariati, qonun-qoidalari, talablari deyarli barcha davrlarga, aksar umuminsoniy ehtiyojlarga ham mos keladi. Islom manbalari bo'lgan Qur'on va Hadislarda ilohiyotga ishonish, ruhiy poklanish, imon, vijdon, e'tiqod, adolat, insonparvarlik, mehr-muruvvat, halollik, fidoiylilik, xullas, inson ma'naviy kamolotining asosi bo'lmish odob-axloq tarbiyasining barcha muammolari qamrab olingan. Islom zamonlar, davrlar, ijtimoiy-siyosiy tartibotlar o'zgargan bo'lsada, odamlarning imon-e'tiqodini mustahkamlab, ongi, qalbi va tafakkuriga ma'naviy ozuqa berib kelmoqda. Buning asosiy boisi islomiy ta'limot, islomiy qadriyatlarning umumbashariy ahamiyatga egaligi, ildizining o'ta chuqur va mustahkamligidadir.

Islomning umumbashariy qadriyat, ilohiy ta'limot sifatida barhayotligini ta'minlab kelayotgan asosiy omil - uning manbalaridir. Islom dinida Qur'oni Karim birinchi manba, Hadisi Sharif esa ikkinchi manba hisoblanadi. Sarvari olam vafotlaridan bir necha kun oldin o'z ummatlariga qarata: "Men sizlarga ikki narsani qoldirdim. Modomiki, ularga amal qilar ekansizlar,

hech qachon to'g'ri yo'ldan adashmaysizlar: ular Allohning kitobi (Qur'oni Karim) va rasulullohning sunnatlaridir", deb vasiyat qilganlar[1]. Faxri koinot mo'min-musulmonlarga qarata, Qur'onni o'qib, unga amal qilinglar, undan uzoqlashib ham, unga chuqur ma'no beraman, deb xato va mubolag'aga berilib ham ketmanglar, uni tirikchilik vositasiga aylantirib, mol-dunyo orttirishga ham o'tmanglar, deb yo'l-yo'riq berganlar.

Asosiy qism. Islomning birinchi manbasi Qur'oni Karim Alloh tomonidan o'z payg'ambari muhammad (s.a.v.) tushirilgan vahiy bo'lib, u muborak zotdan bizlargacha etib kelgan ilohiy kitob hisoblanadi. qur'oni karim Alloh taolo tomonidan o'z bandalariga ul zoti muborak orqali yigirma uch yil moboynda vaqti-vaqti bilan yuborib turilgan. unda insonlar uchun zarur bo'lgan xikmat, axloqiy qoidalar, yo'l-yo'riklar bayon etilgan. Islom dinida qur'oni karimdan keyin ikkinchi o'rinda turadigan nodir manba - hadisi sharifdir. hadislar payg'ambarimizning aytgan so'zlari, diniy va axloqiy yo'l-yo'riqlari, hikmatlaridir. hadislar keng va chuqur ma'noli bo'lib, Muhammad alayhis vassalomning payg'ambarlik yillaridagi hayotlari va faoliyatlarini, islom ahkomlarini, o'lkalar hukmdorlariga yo'llagan maktublarini, madaniyat, ma'naviyat, ta'lim va tarbiya, axloq va odobga oid o'git va ko'rsatmalarini o'z ichiga oladi.

Islom dinida shunday ajoyib g'oyalar, qarashlar, ta'limotlar, falsafiy-axloqiy qoida va o'gitlar mavjudki, ularga amaliy faoliyatda asoslanish, suyanish, faqat musulmonlargagina emas, musulmon bo'lmaganlarga ham, shuningdek, arablargagina emas, ajamlilarga ham, umuminsoniyatga ham gavhardek zarur va muhimdir. shuning uchun ham ota-bobolarimiz, ajdodlarimiz islom dini quruq aqidalar yig'indisi emas, balki ham iymon, ham axloq, ham diyonat, ham yuksak madaniyat va ma'rifat ekanligiga katta ishonch hosil qilib kelganlar. islomning asosi va dasturulamali bo'lgan Qur'oni Karim insonlarni hidoyatga boshlaydi, ilimli bo'lish ma'naviyatli-ma'rifatli, go'zal xulq-atvor sohibi sifatida kamolotga erishishning muhim omili ekanligini ko'rsatadi. Qur'onda birgina "ilm" so'zi turli hollarda bir necha marta takrorlangan. Ana shuning o'zi ham ilm, madaniyat, ma'naviyat, ma'rifat haqidagi g'oyalar qur'oni karimning butun ruhi, mazmuni, mohiyati chuqur singdirib yuborilganligini ko'rsatadi. unda ilm-ma'rifat inson ma'naviy-axloqiy barkamolligining ustuvor sohalaridan biri sifatida qaralgan. Qur'oni karimda ilk nozil bo'lgan oyat ham "Iqro" - "O'qi"[2] so'zidir. Qur'oni Karimda bilimlilar bilan bilimsizlarni tenglashtirib bo'lmasligi aytilgan. "Biladiganlar bilan bilmaydiganlar teng bo'ladimi?" Bu bilan Alloh taolo bilimdonlarning martabalari balandroq bo'lishini uqtiradi. Alloh Kalomida axloq va odob masalasiga alohida e'tibor berilgan. Ta'kidlanishicha, axloq oxirat ne'matlariga yetkazuvchi asosiy omillardan biridir. Kalomi Sharifda aytilishicha, insonni yaxshilik-ezgulikka boshlaydigan hamda razolatga eltadigan xulqlar mavjud. O'zaro kelishmovchilik va dushmanlik-taraqqiyot dushmani. Bu esa jamiyat uchun koni zarar. ezgulik qilish, el-yurtga foyda keltirish, yomonlarni yo'ldan qaytarib to'g'ri yo'lga solish yuksak ma'naviy

fazilat sifatida islom ta'limotida e'zozlanadi. Ezgu niyatli, qalbi pok, iymoni butun odamlar yaxshilik qilishni o'zi uchun eng katta maqsad, olijanoblik deb biladi. "Kimki bir yaxshilik qilsa, unga o'sha yaxshiligi o'n barobar qilib beriladi". Inson ezgulik ishlarni qancha ko'p qilsa yaratganning o'zi uni balo-qazolardan asraydi, unga kuch-qudrat ato etadi, yo'lini ochib beradi.

Qur'oni Karimda odob-axloq madaniyatining, huquqiy munosabatlarning, insonni ulug'lash lozimligiga oid qoidalar bo'yicha muhim ko'rsatmalar mavjud. Unda quyidagilar marhamat qilinadi: "Bandalarimga aytingki, ular eng go'zal so'zlardan so'zlashsinlar", "biz odam bolalarini aziz-mukarram qildik... ularga halol-pok narsalardan rizqu-ro'z berdik va ularni o'zimiz yaratgan juda ko'p jonzotlardan afzal-ustun kilib qo'ydik"; "Yer yuzida kibr-havo bilan yurmagin! chunki sen hargiz erni teshib ketolmaysan va bo'y-bastda tog'larga etolmaysan"; "ey mo'minlar, sizlarga rizq qilib berganimiz—pokiza narsalar—dan yenglar"; "...Alloh zulm qiluvchilarni sevmaydi", "parvardigoringiz... ota-onaga yaxshilik qilishlaringizni amr etdi..."; "zinoga yaqinlashmanglar! chunki (bu) buzqlikdir— eng yomon yo'ldir".

Qur'oni Karimdagi xayriya, saxovat, muruvvat, shafqat, hadya, xayru sadoqat, avf, tavbat-zarru, o'zaro yordam, o'zgalarni kamsitmaslik, hasad qilmaslik, birovlar haqiga ko'z olaytirmaslik kabi ilohiy ta'limotlar butun insoniyat, jumladan, milliy ma'naviyatimiz uchun ham asosiy qo'llanmadir. Qur'onda ota-ona, qarindosh-urug'larga hurmat, etim-esir, kambag'al-miskinlarga muruvvat, do'stlik-birodarlik kabi umumbashariy g'oyalar va qadriyatlar ham o'zining mujassam ilohiy aksini topgan. Ana shu ajoyib g'oyalar milliy ma'naviyatimiz mohiyatini boyitish va mustahkamlashda katta o'rin tutganligini yaxshi bilamiz.

Inson hayotiga zarur hisoblangan ayrim narsalarning oz bo'lishi fazilatdir. masalan: ovqat bilan uyquning kami shu jumlagi kiradi. Ko'p eyish, ko'p ichish ochko'zlik, shahvatparastlik nishonasidir[3]. Hadislarda millatlararo mojarolar, qonli to'qnashuvlar, millat ajratishlar qoralangan. Har xil millat vakillarini, garchi dinlari va diniy e'tiqodlari o'zaro farq qilsada, birbirlarining tillari, tarixlari, madaniyatlari, milliy urf-odatlar va qadriyatlarini bilish va hurmatlashga, o'zaro totuv bo'lib yashashga da'vat etilgan. islomda aytilganidek, yurtida osoyishtalikni saqlash, urushganlarni yarashtirib qo'yish, odamlarning o'rtasini buzmaslik, savobligi jihatdan ro'za tutish, nomoz o'qish, sadaqa qilishdan ham afzaldir. halollik, poklik, haromdan hazar, birovning haqiga xiyonat qilmaslik, mehnat qilib non yeyish, ta'magirlik qilmaslik, pora olmaslik islom ta'limotidagi axloqiy qonun-qoidaning muhim tamoyillaridandir. Hadislarda aytilishicha, "Halol rizq har bir mo'min uchun vojibdir", "Poklik iymondandir", "Harom narsalardan saqlanib—odamlar ichida ibodatlirog'i bo'lasiz. Allohning taqsim qilgan rizqiga rozi bo'ling—odamlarning boyrog'i bo'lasiz", "Alloh taolo pokdir, pokizalikni yaxshi ko'radi, u saxiydirki, sahiylikni yaxshi ko'radi, hovli, sahn va turar joylaringizni toza tutinglar",

“Pora beruvchi ham, uni oluvchi ham do‘zaxga mahkumdur”, “Odamlarni qo‘lidagi narsadan umid qilmanglar, ta‘magirliqdan saqlaninglar, u naqd faqirliqdir”[4].

Islom ta‘limotida adolatli podshohlar, elu-yurt tashvishida kuyib-yonadigan, el g‘amini o‘z g‘ami deb biladigan yurtboshilarni e‘zozlash, belgilab bergan yo‘l-yo‘riqlariga qat‘iy amal qilish zarurligi haqida qimmatli fikrlar, qoidalar bayon etilgan. Hadislarda bayon etilgan mana bu aqidalar bunga yaqqol misol bo‘ladi: “Podshoh bamisoli Allohning yerdagi soyasidir. Kimki uni izzat-ikrom qilsa, Alloh taoloni izzat-ikrom qilgan bo‘ladi. Agar kimki uni xorlasa, go‘yo Allohni xorlagan bo‘ladi”, “Podshohlaringiz yaxshi odamlardan, boylaringiz saxiy va ishlaringiz erkaklar bilan bamaslahat bo‘lsa, sizlar uchun erning ostidan ko‘ra usti afzaldir. Aks holda erni ustidan osti afzaldir”, “Qiyomat kuni qattiq jazolanadigan odamlardan biri —bu zolim podshohdir”. Tabiatga mehr-muhabbat, tevarak-atrofnii, suvni, havoni, tuproqni, hayvonu nabototni pokiza saklash hadislardagi asosiy g‘oyalardan. Tabiatni, kurrai zaminni obod va go‘zal qilish yer yuzidagi barcha noz-ne‘matlarning qadriga etish har bir odam-zotning insoniy burchi. Qur‘ondagi oyat va suralarda, hadislarda hayvonot va nabotot olamini, tabiat va tabiiy muhitni asrab-avaylash, himoya qilish, muvozanatini buzmaslik, isrof qilmaslik to‘g‘risida shunday muhim va zarur ko‘rsatmalar, falsafiy ta‘limotlar borki, ularning ma‘nosi va mohiyati bi–lan tanishsak, go‘yo ular bundan qariyb o‘n besh asr muqaddam hozirgi kunimizni o‘ylab aytilganligiga to‘la ishonch hosil qilamiz.

Hadislarda ta‘kidlanishicha, qaysi bir mo‘min biron ekin eksa yoki mevali daraxt o‘tqazsayu ulardan qushlar, odamlar yoki hayvonlar baxramand bo‘lsa, bu uning sadaqasi hukmida bo‘ladi. Soyasidan xalq foydalanib turgan daraxtni kesib yuborgan odam, hadisi sharif hukmi bo‘yicha do‘zaxga mahkum etiladi. Hadislardagi “ekmak niyatida qo‘lingizda ko‘chat turgan paytda bexosdan qiyomat qoim bo‘lib qolishi aniq bo‘lganda ham ulgursangiz uni ekib qo‘yavering”, deb uqgirilgan fikrning qanchalik muhim va zarurligini aytib o‘tirishning hojati bo‘lmasa kerak. Hadisi Sharifda insonni ulug‘laydigan, uni mukarram zot, deb ta‘riflaydigan fikrlar, ko‘rsatmalar, shariat hukmlari istagancha topiladi.

Islom ayolga uning tabiiy haq-huquqlarini olib berdi, tiriklayin ko‘miladigan qizaloqlarga hayot berdi, tarixda birinchi bor ayolning mavqeini ko‘tardi. “Va yaxshi holatlarda ular, ya‘ni ayollar uchun erlari oldidagi burchlari barobarida huquqlari ham bor”, deyiladi qur‘onda. Rasuli Akram ham Vado hajida aytgan xutbalarida (632 yil 8 mart): “Ey, insonlar! Ayollar borasida Allohdan qo‘rqingiz! Sizning xotinlar ustida haklaringiz bo‘lganidek, ularning ham sizning ustringizda haqlari bordir!” deya marhamat qilganlar. “Ayollaringiz bilan yaxshi yashanglar!” deb erkaklarni ogohlan-tirganlar. Chunki, siz ularni Allohning omonati ila oldingiz. Allohning kalimasi ila jufti halol bo‘ldingiz, yaxshilik bi–lan ularning rizq-ro‘zi va kiyim boshi sizga vojibdir”. Islom jannat onalarning oyoqlari ostida, deb ta‘lim beradi. bu onangning rizosini olsang,

onangni ehtirom qilsang, izzat ko'rsatsang jannatga tushishning muqarrar, degan ma'noni anglatadi. Ana shunday yuksak axloqiy mezonni, ijtimoiy qadr-qimmat va ma'naviyatni ayollarga islom keltirdi. Islom ta'limotida umuman insonlarning, xususan, ayollar, qizlarning odob-axloqi, kamtarligi, sharm-hayosi, iffat, or-nomusi masalalariga ham alohida ahamiyat berilgan. Unda hayo-imondadir hayo doimo yaxshilik keltiradi, deb ta'kidlangan.

Islomiy qadriyatlarning eng muhim tomonlaridan biri - ota-onaga izzat-hurmat va sadoqat ko'rsatish farzandlarning insoniy burchlari ekanligini ta'kidlashdir. Hadislarda bu hakda shunday ajoyib fikrlarni uchratish mumkin: "Otaga itoat qilish-Allohgga itoat qilishdir, unga gunohkor bo'lish Allohga gunohkor bo'lish bilan barobardir". Demak, farzandning muqaddas burchi volidai qiblagohlarini e'zozlash, ularning xizmatiga doimo shay turish, rozi qilishdir. "Ota-onalarning keksalik vaktida har ikkisi yoki biri bo'lmaganida, boshqasini rozi qilib, jannatiy bo'lib olmagan farzand xor bo'lsin, xor bo'lsin va yana xor bo'lsin", degan g'oya hadislarda yetakchi o'rin tutadi.

Umuminsoniy, dunyoviy qadriyat bo'lgan islom ta'limotida boshqa dinlarga, mazhablarga mansub kishilarnigina emas, hatto zolimlarni, buzuklarni ham sabr-toqat bilan tarbiyalab, to'g'ri yo'lga solish eng savobli, ezgu ishlar sifatida uqtirilgan. "Rasuli Akram o'z muridlariga: "Birodarlaringiz xoh zolim, xoh mazlum bo'lsin, ularga yordam beringlar", deganlarida sahobalar undan, "mazlumdaku yordam beramiz, zolimga yordam berishlik qanday bo'ladi?, deb so'rashganda: zolimni zulm qilishdan to'xtatib qolsangiz, shu unga bergan yordamingiz bo'ladi", deb javob bergan ekanlar.

Hadisi sharifdagi "O'g'irlik qilma", "Pora olma", "Yolg'on so'zlama", "Zino qilma", "O'zingga ravo ko'rganni boshqalarga ham ravo ko'r", "Yenglar, ichinglar, sadaqa qilinglar, ammo isrofgarchilikka o'tmanglar", "Ochlarga ovqat bering, bemorlarni borib ko'ring va hojatmandning hojatini chiqaring", "Ahmoqdan uzoqlashing", "Nonni e'zozlanglar", deb zikr etilgan hikmatlar umumbashariy axloqiy qadriyat sifatida jahondagi jamiki xalqlar, elatlar, millatlarga taalluqlidir. Ulug' vatandoshimiz Imom al-Buxoriyning ta'kidlashicha, Payg'ambarimiz tekinxo'rlikni, ta'magirlikni va tilanchilikni yomon ko'rganlar. Masalan, mana bu hadisi sharifga diqqat qiling: "Abu Hurayra raziallohu anhu rivoyat qiladilar: "Rasululloh sallallohu alayhi vasallam: "Bir quchoq o'tin terib, bozorga orqalab olib borib sotib tirikchilik qilgan odam tilanchilik bilan qo'l cho'zib kun ko'rgan odamdan afzal", deyдилar"[5].

Islom ta'limotiga ko'ra, Alloh bandasi bo'lgan inson tirikligida ham, vafot etganida ham ulug'dir. Tirik insonlarga bo'lganidek, uning jasadiga ham, qabriga ham, ruhiga ham hurmat ko'rsatiladi. Islom dini insonparvarlik, millatparvarlik, adolatparvarlik, mehnatsevarlik g'oyalarini keng targ'ib-tashviqot qiladi, ichkilikbozlik, giyohvandlik, o'g'rilik kabi qabih ishlar bilan shug'ullanishni, zino qilishni qattiq qoralaydi, inson mukarram zot deb ulug'lanadi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar mazmun-mohiyatiga, asosiy tamoyillariga batamom zid bo'lgan razolat,

adovat, fisq-fasod, zulm-zo'rvonlik, millatchilik, mahalliychilik, milliy nizolar, urug'-aymoqchilik islom ta'limotida keskin qoralanadi.

Xulosa. Yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqadiki, islom dini insoniyatning axloqiy va ma'naviy taraqqiyotida beqiyos o'rin tutadi. Islomiy ta'limot insonni nafaqat dunyoviy farovonlikka, balki ruhiy poklanish va ilohiy kamolot sari yo'naltiradi. Qur'on va hadislar asosida shakllangan axloqiy me'yorlar har bir musulmonning hayot yo'lida mezon, jamiyatda esa barqarorlik va totuvlikning kafolati hisoblanadi.

Zamonaviy davrda ma'naviy inqiroz, individualizm va ma'rifiy qadriyatlarning susayishi sharoitida islom axloqining mohiyatini chuqur anglash, uni yoshlar ongiga singdirish nihoyatda muhimdir. Chunki ma'naviy yetuklik — insonni komillikka, jamiyatni esa taraqqiyotga olib boruvchi eng muhim omildir. Demak, islomiy qarashlarda axloq va ma'naviy taraqqiyot bir-biridan ajralmas tushunchalar bo'lib, ular uyg'un holda inson hayotining mazmunini, jamiyatning esa ma'naviy qiyofasini belgilaydi. Axloqiy poklik va ma'naviy yuksaklikka intilish har bir musulmonning burchi va jamiyat farovonligining poydevoridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ma'naviy – axloqiy qadriyatlar va ularning yoshlar tarbiyasidagi o'rni. Toshkent, 2004, 6-54- betlar.
2. Ma'naviyat yulduzlari. Toshkent, 1999, 54-69-betlar.
3. Muminov I. Izbr. soch. t-z. Toshkent, "Fan", 1972., str-110.
4. H.Aliqulov. Mutaфakkirlar axloq va adolat xaqida / fors tilidan tarjima, so'z boshi va izohlar. Toshkent, 1995, 48- bet.
5. A.Navoiy A. Asarlar. 15 - jild. Toshkent, 1968, 132 -bet.
6. Норматова, Д. (2022). ДИН ФАЛСАФАСИДА ИНСОН ВА УНИНГ ЖАМИЯТДАГИ ЎРНИ. Research Focus, 1(2), 289-295.
7. Норматова, Д. (2017). АХЛОҚИЙ МЕРОСДА ТАРИХИЙ-МАЪНАВИЙ ҚАДРИЯТЛАР МАСАЛАСИ. Farg'ona davlat universiteti, (3), 14-14.